

KOREYS TILIDA PATCHIM QOIDALARI VA UNLILAR UYG‘UNLIGI

Nosirova N.O.

Samarqand davlat chet tillari instituti,
Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
nigoranosirova0702@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilidagi patchim tushunchasi, uning turlari va qo‘llanish qoidalarini batafsil yoritiladi. Shuningdek, unlilar uyg‘unligi hodisasi va uning so‘z talaffuzi hamda grammatik shakllanishga ta‘siri tahlil qilinadi. Patchim bilan bog‘liq asosiy fonetik o‘zgarishlar, jumladan qo‘shilish, o‘zgarish va tushib qolish kabi jarayonlar ham misollar orqali tushuntiriladi. Maqolada koreys tilining fonetik tizimini yaxshiroq tushunishga yordam beruvchi ilmiy yondashuvlar ham qisqacha ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Koreys tili, patchim, fonetika, unlilar uyg‘unligi, tovush o‘zgarishi, talaffuz, grammatik qoidalar, morfologiya, assimilyatsiya, lingvistika.

Annotation. This article provides a detailed explanation of the concept of batchim (patchim) in the Korean language, including its types and usage rules. It also analyzes the phenomenon of vowel harmony and its influence on pronunciation and grammatical structures. In addition, the article briefly describes phonetic changes related to batchim, such as assimilation, alteration, and deletion, with relevant examples. The study also introduces basic linguistic approaches that help better understand the phonological system of Korean.

Keywords: Korean language, batchim (patchim), phonetics, vowel harmony, sound change, pronunciation, grammar rules, morphology, assimilation, linguistics.

Kirish. Tilshunoslikda tovush o‘zgarishlari muhim o‘rin egallaydi. Bu hodisa nafaqat koreys tilida, balki o‘zbek tilida ham keng o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida fonetika va fonologiya masalalari bilan Abdulhamid Nurmonov, Shavkat Rahmatullayev kabi olimlar shug‘ullangan. Ular o‘zbek tilida tovush almashinuvi, assimilyatsiya va boshqa fonetik hodisalarni ilmiy jihatdan tadqiq etganlar. Koreys tilida esa tovush tizimi va patchim bilan bog‘liq jarayonlar Sejong the Great davridan boshlab o‘rganila boshlagan. Keyinchalik Ju Si-gyeong kabi olimlar koreys fonetikasi va yozuv tizimini chuqur tadqiq qilganlar. Har ikkala tilda ham tovush o‘zgarishlari mavjud. O‘zbek tilida: kitob + lar → kitoblar (tovush saqlanishi) yurak + i → yuragi (tovush o‘zgarishi)

Koreys tilida:

국 + 물 → 궁물 (비음화)

밥 + 먹다 → 밤먹다 (assimilyatsiya)

Shuni ko‘rish mumkinki, har ikkala tilda ham talaffuzni osonlashtirish maqsadida tovush o‘zgarishlari yuz beradi. Biroq koreys tilida bu jarayonlar ancha qat’iy qoidalarga asoslangan va yozuvda ham aks etishi mumkin.

Patchim (받침) – koreys tilining eng o‘ziga xos va murakkab fonologik hodisalaridan biri bo‘lib, so‘z oxiridagi undosh (koda)ning keyingi bo‘g‘in boshidagi tovush (onset) ta’sirida qat’iy tartibga solingan o‘zgarishlar majmuasidir. Bu qoidalar nafaqat talaffuzni, balki imloni ham belgilaydi, chunki ko‘p hollarda so‘z yozilganidek talaffuz qilinmaydi. Patchim qoidalarini asosan assimilyatsiya jarayonlariga asoslangan bo‘lib, ular orqali artikulyatsion qulaylikka erishiladi. **Aosiy qism.** Koreys tilida quyidagi fonologik o‘zgarishlar mavjud: – 폐쇄음화 (portlash), 비음화(burunlash), 유음화(yonlash), 경음화(qattiqlash), 구개음화(so‘rilish), 격음화(shiddatlash) va ularning rasmiy qoidalarini tahli qilinadi. Koreys tilini o‘rganishda patchim qoidalarini bilish juda muhim hisoblanadi. Chunki patchim nafaqat yozuvda, balki talaffuzda ham katta rol o‘ynaydi. Agar o‘rganuvchi patchim qoidalarini bilmasa, so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qishi va tushunmovchilikka duch kelishi mumkin. Birinchidan, patchim to‘g‘ri talaffuzni shakllantirishga yordam beradi. Koreys tilida ko‘plab so‘zlar yozilishidan farqli ravishda talaffuz qilinadi. Masalan, “밥 먹다” so‘zi [밤먹다] tarzida aytiladi. Bu esa patchim qoidalarini bilishni talab qiladi. Ikkinchidan, patchim tinglab tushunish (listening) ko‘nikmasini rivojlantiradi. Chunki real nutqda tovush o‘zgarishlari tez-tez uchraydi va o‘rganuvchi ularni oldindan bilsa, nutqni osonroq anglaydi. Uchinchidan, patchim grammatik qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llashda muhimdir. Koreys tilida ba’zi qo‘shimchalar patchim bor yoki yo‘qligiga qarab tanlanadi. Masalan: 받침 bor → 은, 받침 yo‘q → 는. To‘rtinchidan, patchim yozma nutqda ham muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri yozish uchun ham uning qoidalarini bilish zarur. Unlilar uyg‘unligi (모음 조화, Mo-eum Johwa – Vowel Harmony). Unlilar uyg‘unligi – bu bir so‘z yoki morfologik birlik (masalan, so‘z ildizi + qo‘shimcha) ichida ma’lum guruhga mansub unlilarning kelishuvchi tarzda paydo bo‘lishi tendentsiyasidir. Bu hodisa ko‘plab ural-altoy tillari (masalan, turk, mo‘g‘ul, fin, venger tillari) va ba’zi afrika tillarida uchraydi. Koreys tilida bu hodisa tarixan juda kuchli bo‘lgan bo‘lsa-da, zamonaviy standart tilda uning ahamiyati sezilarli darajada pasaygan. Shunga qaramay, uning qoldiqlari hali ham tilning turli darajalarida, xususan dialektlar, ayrim grammatik shakllar va leksikada o‘z aksini topadi. Unlilar uyg‘unligini o‘rganish tilning tarixiy chuqurligini va uning fonologik tizimining evolyutsiyasini tushunish uchun kalitdir. Tarixiy manbalarga asoslanadigan

bo'lsak qadimgi va o'rta koreys tilida unlilar uyg'unligi muntazam va kuchli fonologik tamoyil bo'lib, tilning deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. O'zbek va koreys tillari qiyosiy tahlili asosida har ikkala tilda ham tovush o'zgarishlari mavjudligi va ular talaffuzni yengillashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, koreys tilida bu jarayonlar ancha tizimli va qat'iy qoidalarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, patchim va unlilar uyg'unligini o'rganish koreys tilini chuqur o'zlashtirish, to'g'ri talaffuz qilish hamda fonologik tizimini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kim Mi-Ryoung. (2008). "Hunminjeongeum Haerye-ui eumso jeongchihak". Somyeong Press. P-34-65.
2. Kim-Renaud, Y.-K. (Ed.). (2009). "Korean: An Essential Grammar". Routledge. P-89-118.
3. Ladefoged, P., & Johnson, K. (2015). "A Course in Phonetics (7th ed.)". Cengage Learning. P-2
4. Lee Hyun-Bok. (1994). "Korean Phonology: A Principle-Based Approach". Thaeaksa. P-201.
5. Lee Ki-Moon. (1972). "Gugeo eumsa yeongu". Seoul National University Press. P-120-145.
6. Lee, I., & Ramsey, S. R. (2011). "A History of the Korean Language". Cambridge University Press. P-45-232.
7. Nosirova N. (2026). Koreys tilida salbiy natijali sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalarning semantik tahlili (-아서/어서, -기 때문에, -느라고 중심으로). Sharq filologiyasi jurnali, 5(07), 448–454.
8. Nosirova N. (2025). Koreys tilida zoonomik komponentli iboralarning inson qiyofasini ifodalashdagi o'rni. Sharq filologiya jurnali, 5(06), 90–95.